

## SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA MUNOSABAT PSIXOLOGIYASINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Kamolova Mashhura

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan biri ekanligi, muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib kelishi hamda inson psixik dunyosiga ta'siri masalalari to'risida bir necha chet el psixolog olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borganliklari masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Shaxslararo munosabat, intropsixologik kategoriya, insoniy munosabatlar, umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik, ijtimoiy-psixologik hodisa, ontogenez, ota-ona va farzand, perseptiv muloqot, san'at, shaxs.*

**Abstract:** *In this article, the study of interpersonal relationships is one of the most pressing problems in the field of psychology. has been the subject of research by several foreign psychologists on the subject of secrecy.*

**Keywords:** *Interpersonal relationships, intro-psychological category, human relationships, generality, similarity, harmony, socio-psychological phenomenon, ontogeny, parent and child, perceptual communication, art, personality.*

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar deganda aslida odamlar orasida amalga oshadigan o'zaro munosabat, muloqot va muomala jarayoni tushuniladi.

Shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta'sir etadi. Shunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan shaxslararo munosabatlar, ularning turli psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya fanida muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Muomala shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar o'zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baholash jarayonlarini kechiradilar. Shuning uchun muomala ijtimoiy-psixologik hodisa, ijtimoiy kategoriya sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, emotsional, kognitiv, motivatsion, regulyativ qirralarini aks ettiruvchi ob'yektiv

va sub'yektiv ehtiyoj sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuvning asosiy omili, negizi vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili.

Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixologlardan L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, B.G. Ananev, A.V. Zaporjets, A.A. Bodalev, B.F. Lomov, A.A. Leontev, M.I. Lisina tadqiqot ishlarini olib borganlar (39, 58,103).

L.S. Vigotskiy bola shaxsi ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalaning ahamiyati borasida «Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi. Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishidir» (58, 38) deb ta'kidlaydi.

L.S. Vigotskiy fikricha, ontogenezda genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir bahs, dialogdir; ikkilamchi esa individning ongi, ruhiy jarayonlarining individualligidir: «Biz madaniy rivojlanishning umumiy genetik qonunini mana shunday shaklda ifodalashimiz mumkin: bolaning madaniy o'sishida har qanday funktsiya baholanishi uchun ikki marta, ikki xil rejada paydo bo'ladi, avval ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so'ng bola ichki dunyosida intropsixologik kategoriya tariqasida». (58,78)

L.S. Vigotskiy shuningdek, shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muomala asosiy vosita, so'ngra esa xulq-atvor vositasi turadi. Chunki, inson yakka qolgan paytda ham muomala funksiyasini o'zida saqlaydi.

L.S. Vigotskiy qarashlaridan yana shu jihat ko'rinadiki, muomala intereorizatsiya, ya'ni ichki nutq va ekstereorizatsiya, ya'ni tashqi nutq, muomala shakllarida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, muomala tufayli shaxs ishtimoiylashuvi yuzaga keladi (58).

Demak, L.S. Vigotskiy muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari g'oyat qimmatli, chunki unda biz shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni uchun muhim asos sifatida muomalani ko'ramiz va shaxs shakllanishida bu jarayonning qimmatini cheksiz ekanligini yanada anglaymiz (58).

V.M. Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muomala mavzusi ijtimoiy-psixologik nazariya jihatidan o'rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o'zaro ta'sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M. Bexterev ijtimoiy hayotda muomalaning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muomalasi qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi.

V.M. Bexterev muomalaning ijtimoiy roli va funksiyasini tahlil etishda uning ko'rinishlari bo'lmish taqlid va ta'sirlanish ahamiyatiga to'xtaladi. Uning fikricha, taqlid bo'lmasa, shaxs ham yuzaga kelmas edi. Chunki, taqlid o'z materialini muomaladan olishini uqtiradi. Ta'sirlanish esa ijtimoiy jarayonlar namoyon bo'lishining omili tariqasida qaraladi.

V.M. Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga ham ajratadi. Bilvosita muomala tarkibiy qismlari sifatida xat, telefon, telegramma erkalash, urishish va boshqalarni olsa, bevosita muomala turiga nutqni kiritadi. Shuni ta'kidlash joizki, muomalani eksperimental o'rganish ishi V.M. Bexterev tomonidan amalga oshirilgandir (38).

V.N. Myasishevning «Shaxsning munosabatlar psixologiyasi» konsepsiyasiga ko'ra shaxsning «dialogik» xususiyati, muomala xarakterining shaxsiy tajribasi va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat mahsuli safatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli shaxsda qiziqish darajasi, emotsiya kuchi, xohish, ehtiyoj, ijtimoiy yo'nalganlik kabi shaxsni harakatlantiruvchi ichki kuchi tarkib topadi va bu uning kechinmalari, xulqida, harakatida ifodalanadi.

V.N. Myasishevning shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid asarlarining tahlilidan ko'rinadiki, muomala jarayoni shaxsning xususiyatlari, xakteri, mayli, qobiliyatiga ta'sir etishdangina rivojlanmasdan, balki muloqotda ishtirok etuvchilarning psixik jarayonlari bilan ham bog'liqligida namoyon bo'lar ekan. Shuning uchun, V.N. Myasishev ishlarining alohida tomoni muomala, uning psixologik tuzilmasi bilan muloqotda ishtirok etuvchilarni psixik jarayonlari orasidagi munosabat xususiyatlarini ochib berilishida yaqqol ko'rinadi (117).

G.M. Andreyeva «Ijtimoiy psixologiya» kitobida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan 3 xil vazifalar va murakkab jarayonlar tuzilmasini taklif etadi (24).

1. Muloqotning kommunikativ tomoni, ya'ni o'zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarning o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayoni sifatida;

2. Muloqotning interaktiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni sifatida;

3. Muloqotning perseptiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunchalari bilan bog'liq jarayon sifatida.

O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F. Parigin (18,28) shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- A) individlarning o'zaro ta'siri jarayoni;
- B) individlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni;
- V) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabat jarayoni;
- G) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- D) bir-biriga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- Ye) shaxslarning bir-birini tushunish jarayoni».

Demak, shaxslararo munosabatlar, ya'ni muloqot jarayoni odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar orasida eng murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan xarakterlanar ekan, ijtimoiy psixologiya fanida olib borilgan jahon psixologlarining juda ko'p tadqiqotlari shu fenomenni shaxs uchun ham zarur, ham oddiy, ham ta'sirchan deb qaraydilar.

Oila kichik guruhcha sifatida yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Bu yaxlit tizimning qismlari, ya'ni a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar oilaning barqarorligi, taraqqiyoti, farzandlar tarbiyasidagi o'rni va boshqalarda aks etadi. G'arb ijtimoiy psixologlari ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishga katta e'tibor berdilar.

G'arbda, ayniqsa, AQShda shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida ko'plab yo'nalishlar paydo bo'ldi; ulardan interaktsiya va kommunikatsiya yo'nalishi tarafdorlari: simpatiya, antipatiya, befarqlik, yakkalanib qolish, faollik, agressiya, bo'ysunish va boshqalarni G. Zimmel, G. Kuli, keyinroq R. Beyls, D. Kartrayt, G. Xomans, S. Ash, R. Kratchfeld va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida chuqur o'rganildi (132,22).

O'zaro bog'liq kishilarning bir vaqtdagi munosabatlarining o'ziga xos tomonlari, shuningdek, o'zaro aloqadagi shaxslarning bir-birlarini persepsiya muammosi shaxslararo munosabatlarda ahamiyatga ega ekanligi har tomonlama tadqiq etildi (G. Xomans, A. Xarre 132,22).

Shaxslararo munosabatlarda shaxslarning o'zaro jips, hamjihat yashashlari uchun "yoqimtoylik" katta rol o'ynashi, bu esa ularning bir-birlariga bog'lanib qolishlariga sabab bo'lishi aniqlandi (S.Shaxter, A. Lott, T. Nyukom (132,48)).

Shaxslararo hamjihatlik bilan shaxslararo munosabatlardagi kommunikatsiyaning soni, takrorlanish darajasi, faollik darajasi o'rtasida to'g'ri aloqa mavjudligi haqida AQShlik psixolog G. Xomans tomonidan ilgari surilgan faraz ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganildi (132,50).

G'arb ijtimoiy psixologiyasida shaxslararo munosabatlarga hissiyot bilan bog'liq fenomen sifatida qaraladi. Dj. Moreno tomonidan o'zaro munosabatlarda simpatiya va antipatiyada shaxslarning yoqimtoyliigi, attraktivligiga sotsiometrik tadqiqotlar yordamida izlanish kuchli turtki berdi (85, 84).

Shaxslararo munosabatlarda o'zaro moslikni o'rganishda M.Shou bu psixologik holatni ikki turga farqlaydi.

1. Ehtiyojlardan kelib chiqqan mosliklar sheriklarning o'zaro moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun bir-birlariga moslashishga majbur bo'lishlari.

2. Xatti-harakat (xulq-atvor)ning o'xshashligidan kelib chiqadigan moslik (shariklarning xatti-harakatlari, xulq-atvorlaridagi o'xshashlikning moslashishiga sabab bo'lishi (100, 142))

Badiiy va tasviriy san'at individning shaxs sifatida shakllanishida, uning xarakter xususiyatlari, dunyoqarashlari, qadriyatlari va boshqa ko'p jihatlarining tarkib topishida muhim rol o'ynaydi.

V.B. Blokning fikricha, tasviriy san'at shaxsda har xil affektiv his- tuyg'uni yuzaga kelirishi mumkin. Masalan, musavvir Repinning o'z farzandining qotili Ivan Grozniy tasvirlangan rasmga qarab ikki xil (Ambivalent) hissiyotni boshdan kechirishi mumkin; bir tomondan fojiali vaziyatning qurboni bo'lgan o'g'il va otaga nisbatan achinish hissi bo'lsa, ikkinchi tomondan farzandkush otaga nisbatan nafrat hissi paydo bo'ladi (36, 31-35).

San'atning shaxsga salbiy, negativ kechinma, fikr va xayollardan tozalovchi (katarsis) ta'siri haqida ilmiy adabiyotlarda yetarli ma'lumotlar mavjud.

Bu haqda ikki yarim ming yil oldin Aristotel birinchilardan bo'lib fikr bildirgan edi. Zamondoshimiz rus psixologi Yu.G. Klimenko san'atning psixoterapiyadagi o'rniga katta ahamiyat berib: "Oxir oqibat teatrning mavjudligidan asl maqsad insonni ruhiy poklanish-katarsis jarayonidir"- deb ta'kidlaydi (85,84).

Tasviriy san'at insonning ong osti sohasiga ta'sir etishi natijasida psixikada kuchli hissiy kechinmalar paydo bo'lishi aniqlangan, bu esa o'z navbatida suggestiv (shaxsning ma'lum bir davr gipnozga o'xshash holatga tushishi) holatni boshdan kechirishiga sabab bo'ladi. Tasviriy san'atning bu xususiyati esa undan har xil psixik, asab va psixosomatik kasallarni davolash metodi sifatida qo'llash imkonini beradi (36,46).

Jahon psixologiya fanida oila muammolari nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Shaxsning kamoloti, uning erishadigan barcha yutuqlarini aynan oila, oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlarini qator yillar davomida xorij, Rossiya va MDHning boshqa psixolog olimlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida olib o'rganganlar. Ulardan I.V. Bestujev-Lada, V.V. Boyko, G.M. Breslav, A.G. Volkov, V. Garbuzov, I.A. Dvoymenniy, R.M. Kapralova, S.V. Kovalev, V.P. Levkovich, E.I. Pavlovich, V.L. Titarenko kabi bir qator olimlarni keltirish mumkin (37,40,41,56,59,86,102,13).

Biroq ilmiy izlanishlarda oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta'siri xususiyatlari maxsus tadqiqot predmetiga kiritilmagan.

Bu keltirilgan qisqa tahlildan ko'rinadiki, shaxslararo munosabatlar, oila maskanida ota-ona va farzandlar orasidagi o'zaro munosabatlar qanchalik o'rganilgan va tadqiq etilgan mavzu bo'lishiga qaramay, uning juda ko'p jihatlari, jumladan, oila muhitida farzand va ota-ona orasidagi muomala, o'zaro munosabatlarda amaliy va hissiy tomonlarning ta'siri, shu jihatlarga ko'ra oiladagi bolaning rivojlanish xususiyatlari, oiladagi farzandning ota-ona munosabatlariga ko'ra o'z oilaviy hayotiga nisbatan munosabati o'rganilmagan. Shuning uchun biz ushbu monografiyamizda ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan his etadigan va amaliy jihatdan namoyon etadigan munosabatlarini, shuningdek, farzandlarning ota-onalariga nisbatan kechiradigan hislarining psixologik xususiyatlarini namoyon bo'lishini ko'rsatib berishga urinib ko'rdik.

Ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlar masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelganligi tufayli, ular orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarni kuzatib tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishga harakat qildik.

Demak, juda ko'p olimlarning ishlarini ko'rib chiqish orqali, oila maskani va u bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq etilganligini, oila masalari har bir millat uchun nihoyatda muhim masala ekanligidan dalolat berishini kuzatdik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kurbonova G. A. Oiladagi shaxslararo munosabarlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga san'at orqali Ta'sir etishning muhim jihatlari. Monografiya. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent 2016y.
2. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулк-атвор намоён булишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
3. Elov Z.S. Axmedova A.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarninig bola ruhiyatiga psixologik ta'siri. respublika ko'p tarmoqli ilmiy tadqiqotlar sammiti. 02/2022. 234-237.
4. Sharifova M.Z. Elov Z.S. Priorities of psychological services in preschool educational organizations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 3, Issue 3, Mar., 2022. 900-904
5. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
6. Elov Z.S. Nutqda uchraydigan buzilishlar va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri. Pedagogik mahorat (Ilmiy-nazariy metodologik jurnal). 1, 2022 fevral 103-105
7. Elov Z.S. Ichki ishlar organlari xodimlari orasida suisidal xulq motivasiyasi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik sabablari. The best INNOVATOR IN SCIENCE №1 2022. 583-591
8. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. Suicide - as a global problem facing humanity. web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb., 2022 349354